ASSESSING THE IMPACT OF DIGITAL ECONOMY TECHNOLOGIES ON REGIONAL PRODUCTION, SERVICE SECTOR DEVELOPMENT, AND EMPLOYMENT	1135
Kurbonova Malika Akhmad kizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ	1140
Ходжаева Хадия Сулейманова	
IMPROVING INTEREST RATE RISK MANAGEMENT PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS AND ITS PRIORITIES	1146
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
KAM QAVATLI TURAR-JOY BINOLARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GIPSOKARTON KARKAS DEVORLARINING USTUNLIGI	1151
Mirzaxonova Mexribon Marat qizi, Raxmonova Mahliyoxon Avazjon qizi, Baratova Mushtariybegim O'tkir qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA ENERGIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASHDA ARIMA MODELIDAN FOYDALANISH.....	1159
Kuralbayev Jo'rabek Aybekovich	
IPO ORQALI KAPITAL JALB QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	1163
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	
ВОЗДЕЙСТВИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1172
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
YANGI TITIB-TA'MINLAGICH TA'SIRIDA PAXTANI TITILISH JARAYONINING NAZARIY TAHLIL NATIJALARI	1178
Qurbanbaev Elyor Baxtiyarovich, Sobirov Doniyor Xolmurodovich	
TIJORAT BANKLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALARI.....	1183
Uralov Shavkat Makhramovich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	1188
Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT LOGISTIKASI VA TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI	1193
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZ SHAKLLANISHIGA MAKROIQTISODIY VA TARMOQ OMILLARINING TA'SIRI.....	1198
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
5LP LINTERIDAGI CHIGIT ARALASHTIRGICHNI MODERNIZATSIYA QILISH BO'YICHA BAJARILGAN ISHLARNING TAHLILI VA TADQIQOT YO'NALISHLARINI BELGILASH	1204
Nazirov Raxmatjon Rasulovich, Karimov Maxmud Raxmatovich, Abduqahorov No'monbek Oybek o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA BUG'DOY YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI	1209
Azamqulov Nurbek Ulug'bek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	1215
Fayziyev Rabim Alikulovich, Tohirova Zarifa Shuhrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1221
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



CHAKANA SAVDO TARMOG'INING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1225
G'aybullayev Sarvar O'ktam o'g'li	
MEHNAT BOZORI STRUKTURASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1232
Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1237
Tuyinov Botir Ismatovich	
THE ROLE OF NATIONAL MENTALITY AND VALUES IN INSTITUTIONAL TRANSFORMATION PROCESSES.....	1243
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ HR-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ.....	1250
Амирджанова Ситора Сунатовна, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммадович, Урозбоев Хайрулла Муродбойевич, Маматкулов Хумоюн Бобирович	
HUDUDLARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI OSHIRISH VA MAHALLIY BOSHQARUV VAKOLATLARINI KENGAYTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIGI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	1255
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM VA MEHMONXONA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION SIYOSAT	1260
Shokirov Firdavsbek Ulug'bekovich	
HUDUDIY RIVOJLANISHNI BAHOLASH METODOLOGIYASINING ILMIY MUAMMOLARI	1265
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
TRANSPORT TIZIMIDA YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL ETISHNING ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1271
Sevara Aytieva Allaberdiyeva	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA LIKVIDLIKNI QOPLASH ME'YORI (LCR) DINAMIKASI VA LIKVIDLIK BOSHQARUVI SAMARADORLIGI	1279
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	1286
Xikmetov Nodirbek Ikromovich	
O'ZBEKISTONDA TARIXIY-MADANIY TURIZM DESTINATSIYALARINING HUDUDIY RIVOJLANISHI VA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1293
Ibroximov Nodirbek	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOY TA'MINOTINI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMLARI.....	1299
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1302
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA SUG'URTA XIZMATLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI.....	1306
Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS AND CURRENT STATE OF INVESTMENTS IN HUMAN CAPITAL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	1310
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MANAGEMENT SYSTEM TRANSFORMATION AS A STRATEGIC DRIVER OF SUSTAINABLE PRODUCTION EFFICIENCY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	1317
Kodirov Bekzod Khomidjonovich	



O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	1322
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIVAVIY BOSHQARUV TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA INNOVATSION MEXANIZMLARI	1327
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
MINTAQANING TURISTIK VA DAM OLISH MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISH.....	1332
Q.A. Musaxanov	
CHORVACHILIK INFIRATUZILMASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	1336
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ТУРИЗМА И ВОЗМОЖНОСТЬ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1340
Усманова Диляфруз Каршиевна	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI KENGAYTIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING METODOLOGIK ASOSLARI.....	1344
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTI RISKLARINI BAHOLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY VA AMALIY JIHATLARI	1351
Sattorov Shohrux Maxmudjon o'g'li	
AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH HAMDA UMUMLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1358
I.Yeshpanov	
O'ZBEKISTONDA O'RMON XO'JALIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA MOLIVALASHTIRISH	1365
Karimov Dilshod Turabboevich	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI ...	1370
Saipnazarova Mohinur Utkir qizi	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI JALB QILINGAN MABLAG'LAR HISOBIDAN MOLIVALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1373
Amonova Dilafro'z O'tkurovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI KENGAYTIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING METODOLOGIK ASOSLARI.....	1377
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA BANKLARARO RAQOBATNING YANGI SHAKLLARI	1384
Karimov Odiljon Boqiyevich	
LOGISTIKA TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA ULARNING IQTISODIY TAHLILI.....	1394
Kucharova Shaxlo Sobir qizi	
MILLIY SUG'URTA BOZORIDA SUG'URTA XIZMATLARINI BOSHQARISH VA UNING OPTIMALLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1399
Umirov Abdusalom To'rayevich	
MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR (IFRS 9) HISOBI	1406
Zaripova Sayohat Zafarovna	
PLYONKA QOPLAMALI POLIZ EKINLARI EKISH TEXNIKASIDA PUSHTA SHAKLLANTIRUVCHI ISHCHI ORGANLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1411
Nigmatjonov Sardor Abdumannobovich	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGIDA TO'LOVLAR TIZIMINING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI.....	1416
Tangirqulov G'ulom Baxtiyorovich	



KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVIDA SMART TEXNOLOGIYALARNING SHAKLLANISHI	1421
Mamaraimov Ilhomjon Rajabboyevich	
O‘ZBEKISTON KORXONALARIDA KAPITAL TUZILMASI VA MOLIYAVIY MUSTAQILLIK DARAJASI.....	1427
.....	
Asomidinova Mohigulbonu Oybek qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNES LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1432
.....	
Norqobilova Nargiza Abdiquodirovna	
ASSESSMENT OF PRICING STRATEGIES APPLIED BY LEADING RETAIL CHAINS IN UZBEKISTAN	1438
.....	
Anvar DEBERDIYEV	
ZARAFSHON VODIYSIDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI	1442
.....	
Turayev Abduvoxid Kuldashevich	



ZARAFSHON VODIYSIDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Turayev Abduvoxid Kuldashevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
Raqamli iqtisodiyot kafedrasida assistenti
E-mail: abduvoxidturayev70@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Zarafshon vodiysida xalqaro turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda turizm sohasidagi amaliy tashabbuslar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Samarqand, Buxoro va Navoiy hududlarini yagona turistik makon sifatida o'zaro bog'lash bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Zarafshon vodiysi, xalqaro turizm, turizm halqasi, Samarqand, Buxoro, Navoiy, turistik marshrut, raqamli marketing, xizmatlar eksporti, turizm klasteri.

Аннотация. В статье проанализированы приоритетные направления развития международного туризма в Зарафшанской долине на основе официальных статистических данных, нормативно-правовых документов и практических инициатив в сфере туризма. Также разработаны предложения по объединению Самарканда, Бухары и Навои в единое туристическое пространство.

Ключевые слова: Зарафшанская долина, международный туризм, туристический маршрут, Самарканд, Бухара, Навои, цифровой маркетинг, экспорт услуг, туристический кластер.

Abstract. This article analyzes the priority directions for developing international tourism in the Zarafshan Valley based on official statistical data, legal documents, and practical initiatives in the tourism sector. In addition, proposals are developed to integrate Samarkand, Bukhara, and Navoi into a unified tourism destination.

Keywords: Zarafshan Valley, international tourism, tourism ring, Samarkand, Bukhara, Navoi, tourism route, digital marketing, service exports, tourism cluster.

KIRISH

Zarafshon vodiysi O'zbekistonning tarixiy, madaniy va tabiiy resurslari mujassamlashgan yirik turistik hududlaridan biri hisoblanadi. Vodiyning turizm salohiyati faqat Samarqand va Buxoro kabi xalqaro miqyosda tanilgan markazlar bilan cheklanmaydi. Navoiy viloyatidagi cho'l landshaftlari, Karmananing tarixiy muhiti, Nurota tog'oldi hududlari, Sarmishsoy qoyatosh rasmlari, Aydarko'l atrofidagi dam olish maskanlari hamda yurt lagerlari xalqaro turizm mahsulotini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Shu jihatdan, Zarafshon vodiysini "tarixiy shahar – cho'l ekoturizmi – ziyorat – rekreatsiya – gastronomiya" zanjiri asosida kompleks rivojlantirish mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston turizm sohasi pandemiyadan keyingi tiklanish bosqichidan barqaror o'sish bosqichiga o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2026-yil 16-yanvardagi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda mamlakatga 11,7 mln nafar chet el fuqarosi turistik maqsadlarda tashrif buyurgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 3,7 mln nafarga yoki 46,8 foizga ko'pni tashkil etgan. Demak, xalqaro turizm oqimining kengayishi hududlararo turistik marshrutlarni ko'paytirish, sayyohlarning mamlakatda qolish muddatini uzaytirish hamda xizmatlar eksporti hajmini oshirish vazifalarining dolzarbligini kuchaytirmoqda.

Davlat siyosatida ham turizm sohasi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida tashqi va ichki turizmni rivojlantirish, turizm xizmatlari eksportini oshirish, mehmon o'rinlari sonini ko'paytirish hamda turizm klasterlarini shakllantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, 2026-yildagi PF-21-son Farmonda¹ 2030-yilgacha turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 7 foizga, turizm xizmatlari eksportini 6 mlrd AQSH dollariga hamda xorijiy turistlar sonini yiliga 20 mln nafarga yetkazish maqsadlari qayd etilgan. Mazkur strategik ko'rsatkichlar Zarafshon vodiysi kabi tayanch turistik hududlarni yagona integratsiyalashgan turistik makon sifatida rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-/8050769>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zarafshon vodiysining turizm salohiyatini baholashda, avvalo, hududning tarixiy-geografik o'rnini muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning rasmiy turizm portalida Zarafshon vodiysi Samarqand va Buxoro oralig'ida joylashgan qadimiy, unumdor hamda tarixiy makon sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, Zarafshon daryosi vodiyning tabiiy-iqtisodiy hayotida asosiy omillardan biri ekanligi qayd etilgan².

Rasmiy turizm axborotlarida Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarini bog'lovchi yangi turizm halqasi alohida ta'kidlanadi. Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda sayyohlarning yangi va nodatiy turizm obyektlarini kashf etishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Shu maqsadda Buyuk Ipak yo'lining "Zarafshon – Qoraqum yo'lasi" bo'ylab Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarini birlashtiruvchi yangi turizm marshruti ishlab chiqilgan³. Mazkur yondashuv Zarafshon vodiysida xalqaro turizmni hududiy integratsiya, marshrutlarni diversifikatsiya qilish hamda sayyohlarning hududda qolish muddatini uzaytirish orqali rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Navoiy viloyatini rivojlantirish bo'yicha 2026-yildagi PQ-58-son qarorda⁴ ham turizm infratuzilmasi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Qarorda Navoiy viloyatida xorijiy turistlar oqimini 600 ming nafarga, mahalliy sayyohlar sonini esa 3 mln nafarga yetkazish vazifasi belgilab berilgan. Shuningdek, Karmana ko'chasini milliy uslubdagi madaniy, turizm va xizmat ko'rsatish markaziga aylantirish, Qosim Shayx xonaqohi hamda Mirsaid Bahrom ziyoratgohlarini o'zaro bog'lash, shuningdek, "Qadimiy Karmana" turistik markazini tashkil etish rejalashtirilgan. Mazkur qaror Zarafshon vodiysi turizmida Navoiy viloyatining tranzit hudud sifatidagi roldan tashqari, mustaqil turistik mahsulot yaratuvchi markaz sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Turizmning zamonaviy rivojlanishida raqamli texnologiyalar ham muhim omillardan biriga aylandi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli marketing, elektron bronlash tizimlari, mobil ilovalar, QR-ma'lumotnomalar, CRM tizimlari hamda turistlar oqimini real vaqt rejimida kuzatish vositalari hududlarning xalqaro miqyosdagi ko'rinuvchanligini oshiradi. O'zbekiston sharoitida ushbu vositalar Zarafshon vodiysining turistik obyektlarini yagona axborot maydoniga integratsiya qilish, xorijiy sayyohlarga marshrutlarni oldindan rejalashtirish imkonini yaratish hamda xizmatlar sifatini samarali nazorat qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli tahlil, statistik taqqoslash, hududiy guruhlash, SWOT yondashuvi hamda ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-21-son Farmoni⁵, PF-158-son Farmoni⁶, Navoiy viloyatini rivojlantirishga oid PQ-58-son qarori⁷, shuningdek, Turizm qo'mitasi va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari o'rganildi. Ikkinchi bosqichda Zarafshon vodiysining turistik resurslari Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari kesimida guruhlandi. Uchinchi bosqichda esa xalqaro turizmni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mexanizmlar, jumladan, marshrutlashtirish, turistik mahsulot yaratish, raqamli marketing, infratuzilmani rivojlantirish hamda xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Tahlilda asosiy indikatorlar sifatida O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni, PF-21-son Farmonida⁸ 2030-yilgacha belgilangan turizm ko'rsatkichlari, Zarafshon vodiysida hududlararo turizm halqasining mavjudligi, Navoiy viloyatida xorijiy va mahalliy turistlar oqimi bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar, shuningdek, turizm infratuzilmasi va xizmatlar sohasining rivojlanish imkoniyatlari tanlab olindi. Mazkur indikatorlar mavzuni nafaqat umumiy tavsiflash, balki uni strategik boshqaruv nuqtayi nazaridan kompleks baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston turizm bozorida 2025-yil yakunlari ijobiy rivojlanish bosqichi sifatida namoyon bo'ldi. Turistlar oqimining sezilarli darajada oshishi Samarqand, Buxoro va Navoiy kabi hududlarda xalqaro turistik marshrutlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zarafshon vodiysi aynan shu jarayonda bir qator muhim ustunliklarga ega. Birinchidan, Samarqand va Buxoro shaharlari jahon miqyosida tan olingan tarixiy-madaniy meros markazlari hisoblanadi. Ikkinchidan, Navoiy viloyati cho'l turizmi, ziyorat turizmi, ekoturizm hamda rekreatsion turizm yo'nalishlari bo'yicha turli xil turistik mahsulotlarni taklif etish imkoniyatiga ega. Uchinchidan, mazkur hududlarni o'zaro bog'lovchi transport yo'nalishlari sayyohlar uchun ko'p kunlik kompleks marshrutlarni shakllantirishga qulay sharoit yaratadi (1-jadval).

2 O'zbekiston rasmiy turizm portal. "Zarafshon vodiysi" // Uzbekistan.travel: turistik obyektlar bo'limi.

3 O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. "Navoiy, Samarqand va Buxoroni birlashtirgan yangi turizm halqasi" // Gov.uz. — 2025-yil 27-iyun.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.02.2026 yildagi PQ-58-son <https://lex.uz/pdfs/-8049447>

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/docs/-6600413>


7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.02.2026 yildagi PQ-58-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8049447>

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>

1-jadval

 O'zbekiston turizmi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar va ularning Zarafshon vodiysi uchun ahamiyati⁹

Ko'rsatkich	Rasmiy ma'lumot / maqsad	Zarafshon vodiysi uchun xulosa
2025-yilda O'zbekistonga kelgan xorijiy turistlar	11,7 mln nafar	Samarqand–Buxoro–Navoiy yo'nalishida sayyohlar oqimini ko'p kunlik turpaketlarga yo'naltirish imkoniyati mavjud
2025-yildagi o'sish sur'ati	46,8 %	Hududlararo marshrutlar hamda servis infratuzilmasini tezkor ravishda moslashtirish talab etiladi
2030-yilda xorijiy turistlar soni	20 mln nafar	Zarafshon vodiysini xalqaro bozorlar uchun alohida "corridor brand" sifatida targ'ib qilish zarur
2030-yilda turizm xizmatlari eksporti	6 mlrd AQSH dollari	Yuqori qiymatli madaniy, ziyorat, ekoturizm va gastronomik turpaketlarni shakllantirish lozim
2030-yilda ichki sayyohlar safarlari	25 mln safar	Ichki turizm xalqaro marshrutlar infratuzilmasining yil davomida barqaror bandligini ta'minlaydi
Turizm klasterlari soni	25 taga yetkazish	Samarqand–Buxoro–Navoiy turizm halqasi klaster yondashuvi uchun tayanch hudud bo'lib xizmat qilishi mumkin



1-rasm. O'zbekistonga kelgan xorijiy turistlar soni dinamikasi, mln nafar

1-jadval va rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, turizmni rivojlantirishning keyingi bosqichi faqat turistlar sonini oshirish bilan cheklanib qolmaydi. Asosiy vazifalardan biri har bir turistdan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni oshirish hisoblanadi. Shu maqsadda Samarqand yoki Buxoroga tashrif buyurgan sayyohlarni Navoiy yo'nalishiga jalb etish, Navoiy orqali esa cho'l turizmi, ziyorat obyektlari, rekreatsion hududlar hamda mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari bilan bog'liq turistik xizmatlardan foydalanishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, Zarafshon vodiysi bir markazli emas, balki ko'p markazli integratsiyalashgan turizm tizimi asosida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiqdir (2-jadval).

2-jadval

 Zarafshon vodiysi hududlarining xalqaro turizm mahsulotidagi funksional roli¹⁰

Hudud	Asosiy turistik mahsulot	Rivojlantirish yo'nalishi
Samarqand	Madaniy meros, tarixiy shahar, MICE va gastronomiya	Sayyohlarni vodiy bo'ylab keyingi manzillarga yo'naltirish
Buxoro	Ziyorat turizmi, tarixiy-me'moriy meros, hunarmandchilik	Hunarmandchilik, gastronomiya va mehmon uylari tarmog'ini rivojlantirish
Navoiy	Cho'l landshaftlari, Karmana, Nurota, Sarmishsoy, Aydarko'l, yurt lagerlari	Cho'l-ekoturizmi, ziyorat-rekreatsiya hamda ekstremal turizm paketlarini shakllantirish
Zarafshon–Qoraqum yo'lagi	Hududlararo turizm halqasi	Yagona brend, yagona raqamli xarita hamda yagona servis standartini joriy etish

9 Manba: Milliy statistika qo'mitasi hamda PF–21-son Farmon ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. <https://www.lex.uz/docs/-8050769>

10 Turizm qo'mitasi hamda O'zbekiston rasmiy turizm portali ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Zarafshon vodiysida xalqaro turizmni rivojlantirishning birinchi ustuvor yo'nalishi integratsiyalashgan turistik marshrutlarni shakllantirish hisoblanadi. Bunda Samarqand va Buxoro xalqaro miqyosda tanilgan asosiy "kirish nuqtalari", Navoiy esa yangi turistik taassurotlarni taqdim etuvchi kengaytiruvchi hudud sifatida faoliyat yuritishi lozim. Masalan, "Samarqand – Karmana – Nurota – Aydarko'l – Buxoro" yoki "Buxoro – Qiziltepa – Karmana – Sarmishsoy – Samarqand" kabi marshrutlar xalqaro sayyohlar uchun tarixiy meros, ziyorat, tabiat va rekreatsion dam olish imkoniyatlarini yagona safar doirasida birlashtirish imkonini beradi.

Ikkinchi ustuvor yo'nalish turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish bilan bog'liq. Zarafshon vodiysi turizmi faqat tarixiy ekskursiyalar bilan cheklanib qoladigan bo'lsa, turistlarning hududda qolish muddati hamda xarajat hajmi nisbatan past bo'lishi mumkin. Shu sababli ziyorat turizmi, gastronomik turizm, cho'l safari, ekologik sayohatlar, hunarmandchilik ustaxonalari, milliy taomlar festivallari, foto-turizm, geoturizm hamda rekreatsion dam olish xizmatlarini o'zaro integratsiyalashgan holda taklif etish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi ustuvor yo'nalish transport va servis infratuzilmasini turistik marshrutlarga moslashtirishdan iborat. Turistlar uchun yo'llarning qulayligi, sanitariya sharoitlarining talab darajasida bo'lishi, xavfsiz transport tizimi, turistik belgilar, mehmonxona va mehmon uylari xizmatlari sifati, shuningdek, ko'p tilli axborot ta'minoti hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. PQ-58-son qarorda¹¹ Karmana turistik markazini rivojlantirish, piyodalar uchun qulay ko'chalarni tashkil etish, ziyorat obyektlarini o'zaro bog'lash hamda transport infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Mazkur choralar Navoiy hududini Zarafshon vodiysi turistik halqasiga integratsiya qilishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchi ustuvor yo'nalish raqamli targ'ibot va ko'p tilli kontentni rivojlantirish bilan bog'liq. Xalqaro turistlar turistik marshrutlarni tanlashda ko'pincha onlayn xaritalar, bloglar, qisqa videolar, reyting tizimlari, bronlash platformalari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarga tayanadi. Shu sababli Zarafshon vodiysi bo'yicha yagona ko'p tilli raqamli xarita, 3-5 kunlik tayyor turistik marshrutlar, mehmonxonalar va transport aloqalari, gidlik xizmatlari, ovqatlanish maskanlari hamda xavfsizlikka oid ma'lumotlarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan platformani yaratish zarur hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval

Zarafshon vodiysida xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha ustuvor chora-tadbirlar¹²

Ustuvor yo'nalish	Amaliy mexanizm	Kutiladigan natija
Yagona turizm halqasini shakllantirish	Samarqand–Buxoro–Navoiy yo'nalishlarini yagona turpaketga birlashtirish	Turistlarning hududda qolish muddati uzayadi hamda xizmatlar eksporti hajmi oshadi
Navoiy yo'nalishini rivojlantirish	Karmana, Nurota, Sarmishsoy, Aydarko'l va cho'l lagerlarini turistik marshrutlarga integratsiya qilish	Noodatij va diversifikatsiyalashgan turizm mahsulotlari shakllanadi
Raqamli marketingni rivojlantirish	Ko'p tilli veb-sahifalar, QR-kodlar, mobil xaritalar va ijtimoiy tarmoqlardagi reklama vositalaridan foydalanish	Xalqaro bozorda hududning ko'rinuvchanligi ortadi
Servis standartlarini takomillashtirish	Gidlar, mehmon uylari, transport va ovqatlanish maskanlari uchun yagona sifat standartlarini joriy etish	Turistlar qoniqishi hamda qayta tashrif va tavsiya ko'rsatkichlari oshadi
Mahalliy aholi ishtirokini kengaytirish	Hunarmandchilik, gastronomiya, oilaviy mehmon uylari va festival xizmatlarini rivojlantirish	Daromadlarning hududlarda qolishi hamda bandlik darajasining oshishi ta'minlanadi
Barqaror turizmni rivojlantirish	Chiqindilarni boshqarish, suv resurslarini tejash va tabiiy obyektlardagi yuklamani me'yorlashtirish	Ekologik xavflar kamayadi hamda tabiiy resurslar muhofaza qilinadi

Zarafshon vodiysi turizmini xalqaro bozorlarga olib chiqishda bozor segmentatsiyasini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa va Sharqiy Osiyo davlatlaridan tashrif buyuruvchi turistlar uchun madaniy meros hamda qadimiy shaharlar asosiy qiziqish uyg'otsa, Turkiya, Malayziya, Indoneziya va Fors ko'rfazi davlatlari turistlari uchun ziyorat turizmi, halal xizmatlar va oilaviy dam olish paketlari yanada jozibador bo'lishi mumkin. Qo'shni davlatlardan keluvchi turistlar uchun esa qisqa muddatli dam olish, savdo, gastronomiya va festival turizmi qulay yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli yagona umumiy reklama strategiyasi bilan cheklanib qolmasdan, har bir maqsadli bozor uchun alohida kontent, narx siyosati hamda turistik marshrutlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.


Xizmatlar sohasi turizm infratuzilmasining iqtisodiy asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy

11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.02.2026 yildagi PQ-58-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8049447>

12 Manba: PF-21-son Farmon, PQ-58-son qaror hamda Turizm qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. <https://lex.uz/uz/docs/-6759745>

statistika qo'mitasining 2025-yil yanvar-dekabr oylariga oid dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 050,3 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 14,7 foizga oshgan. Mazkur o'sish Zarafshon vodiysida mehmonxona xizmatlari, ovqatlanish maskanlari, transport, gidlik faoliyati, madaniy-ko'ngilochar xizmatlar hamda raqamli servislar bozorining kengayib borayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, Zarafshon vodiysi xalqaro turizmini rivojlantirish jarayonida mavjud salohiyatdan yanada samarali foydalanish imkoniyatlari ham kuzatilmoqda. Xususan, ayrim turistik obyektlarda xizmat sifatini yanada takomillashtirish, turistik axborotlarni tizimli va raqamli shaklda kengaytirish, transport bog'lanishlarini yanada qulaylashtirish hamda chekka hududlarda ko'p tilli gidlik xizmatlari va raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar investitsiyalarni faol jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish hamda mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda (2-rasm).



2-rasm. PF-21-son Farmon bo'yicha 2030-yilgacha turizm sohasida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar¹³

Rasm ma'lumotlari turizm sohasida 2030-yilgacha belgilangan rivojlanish maqsadlari keng qamrovli va strategik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Mazkur maqsadlarga erishishda Zarafshon vodiysi yuqori salohiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, mazkur hudud mamlakatning eng kuchli turistik brendlari bo'lgan Samarqand va Buxoroni Navoiy viloyatidagi yangi turizm mahsulotlari bilan o'zaro bog'lash imkoniyatiga ega.

Natijada turistlarning marshrutlari uzayadi, ularning xarajat tarkibi diversifikatsiyalanadi hamda xalqaro turizmning hududiy iqtisodiyotga ta'siri yanada kuchayadi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan turistik marshrutlarning rivojlanishi xizmatlar eksporti hajmini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zarafshon vodiysi xalqaro turizmni rivojlantirish uchun O'zbekistondagi eng muhim hududiy turistik makonlardan biri hisoblanadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Samarqand va Buxoro jahon miqyosida tan olingan tarixiy markazlar sifatida asosiy kirish nuqtalarini shakllantiradi, Navoiy viloyati esa cho'l-ekoturizmi, ziyorat turizmi, rekreatsiya hamda noodatiy sayohat mahsulotlari orqali ushbu yo'nalishni kengaytiradi. Shu sababli Zarafshon vodiysini alohida viloyatlar kesimida emas, balki yagona integratsiyalashgan turizm halqasi sifatida boshqarish maqsadga muvofiqdir.

Maqola natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, "Zarafshon vodiysi turizm halqasi" brendi ostida Samarqand-Buxoro-Navoiy yo'nalishlarini yagona xalqaro turpaket sifatida shakllantirish zarur. Ikkinchidan, Navoiy viloyatidagi Karmana, Nurota, Sarmishsoy, Aydarko'l va cho'l lagerlarini xalqaro marshrutlarning muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylantirish lozim. Uchinchidan, ko'p tilli raqamli xaritalar, QR-ma'lumotnomalar hamda onlayn bronlash tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. To'rtinchidan, xizmat ko'rsatish standartlari, gidlar malakasi, sanitariya talablari va transport xavfsizligi bo'yicha hududlararo yagona mezonlarni ishlab chiqish zarur. Beshinchidan, mahalliy aholini hunarmandchilik, gastronomiya, mehmon uylari va festival xizmatlari orqali turizm zanjiriga faol jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

13 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>



Umuman olganda, Zarafshon vodiysida xalqaro turizmni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari turistik resurslar sonini koʻpaytirishdan koʻra, ularni yagona strategik tizim asosida integratsiyalash bilan chambarchas bogʻliqdir. Agar Samarqand, Buxoro va Navoiy oʻrtasidagi turizm halqasi zamonaviy infratuzilma, raqamli marketing vositalari hamda yuqori sifatli xizmatlar bilan mustahkamlanadigan boʻlsa, mazkur hudud Oʻzbekistonning 2030-yilgacha belgilangan xalqaro turizm maqsadlariga erishishida muhim tayanch turistik makonga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. 2025-yilda Oʻzbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan. — Toshkent, 2026-yil 16-yanvar.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni. “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida. — Toshkent, 2023. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha moʻljallangan ustuvor yoʻnalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida. — Toshkent, 2026. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
4. Oʻzbekiston Respublikasi Turizm qoʻmitasi. Navoiy, Samarqand va Buxoroni birlashtirgan yangi turizm halqasi. — 2025-yil 27-iyun.
5. Oʻzbekiston rasmiy turizm portali. Zarafshon vodiysi // Uzbekistan.travel.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-fevraldagi PQ–58-son qarori. 2026-yilda Navoiy viloyatini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida. — Toshkent, 2026. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8049447>
7. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. Oʻzbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy koʻrsatkichlari. — Toshkent, 2026-yil 20-yanvar.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100